

## Faollik fidoyilikda

Tashabbuskorlik va tashkilotchilik inson faoliyatining ikki qanoti. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan insonlar doimo e'tiborga sazovor, tahsinga loyiq. O'ziga yuklangan vazifani sharaf bilan ado etish ham fidoyilikni talab etadi. Zahmat chekmaguncha rahmat eshitilmas degan hikmat bejiz aytilmagan. O'z kasbini sevish, yaqinlariga, kasbdoshlariga muhabbatli va muruvvatli bo'lish uni el-yurti, mehnat jamoasi, mahallasi, oilasi oldida katta nufuzga ega qilgani sir emas. Gap 1981 yildan buyon institutimizda samarali faoliyat yuritib kelayotgan Abduraupov Ramz Rasuljanovich haqida. Ular 19 dekabr kuni o'zlarining muborak 60 yoshini qarshiladilar.

Abduraupov Ramz Rasuljanovich 1983-1986 yillarda Sankt-Peterburg davlat politexnika universiteti aspiranturasida tahsil olgan. Institutda 15 yil davomida "O'quv-metodika bo'limi" boshlig'i lavozimida ishlagan. U 2017 yildan hozirgi paytgacha Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i lavozimida ishlab kelmoqda. U Ph.D., dotsent.

R.R. Abduraupov - ko'pgina ilmiy va o'quv-uslubiy anjumanlarda ishtirok etgan va 30 ga yaqin maqolalar chop etgan. Ikkita ixtiro muallifi. U O'zbekiston Respublikasi Agrosanoat Toshkent viloyati kasaba uyushmasi tomonidan Faxriy yorliq bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 iyuldagi Farmoniga asosan ta'sis etilgan "O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi esdalik nishoni" bilan taqdirlangan. Suv xo'jaligi a'lochisi. U har ishda tashabbuskor, jur'atli, to'g'ri so'z, ma'naviy yetuk, o'z hamkasablariga nisbatan doimo mehribon va g'amxo'r.

### **Hurmatli Ramz Rasuljanovich!**

El-yurt hurmatini meros qilib bo'lmaydi. Unga faqat umr bo'yi halol, fidokorona mehnat qilib, yonib yashagan kishilargina erishadi. Sizni mana shunday kishilar toifasidan ekanligingizdan butun jamoamiz va do'st-u birodarlaringiz, yaqinlaringiz faxrlanadi. Sizga tangridan uzoq umr, sihat-salomatlik va mamlakatimiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan kelajak faoliyatingizda kuch-quvvat va ulkan zafarlar tilaymiz!



**Sizga samimiy hurmat va ehtirom bilan Toshkent irrigatsiya va qishoq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti jamoasi nomidan Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**